

O'zbek sharqshunos olimining tasavvuf va naqshbandiya asoslariga oid oltita kitobi Turkiyada nashr bo'ldi

Tasavvufdagi kubraviya, yassaviya va xojagon-naqshbandiya tariqatlari O'zbekistonimizda shakllanib, shu yerdan islom olamining katta hududlariga, keyinchalik, hatto, Yer yuzining turli burchaklariga tarqadi. Jahonda, xususan, naqshbandiya juda keng yoyilgan. Chunki u islom olamidagi eng so'nggi va mukammal tariqat hisoblanadi.



Turkiya Respublikasida ham naqshbandiya juda yuksak qadrlanadi. Hozirgi kunda ham bu mamlakatda uning ko'p sonli muxlislari – mavjud.

Hammamiz yaxshi bilamizki, naqshbandiyaning ketma-ket yetti piri aynan Buxoroda yashab, faoliyat olib borgan. Ular mangu qo'nim topgan makon va qadamjolar asrlar mobaynida muqaddas ziyoratgohlar sifatida qadrlanib keladi. Mustaqillik yillarida bu maskanlar tubdan obod qilindi. Xususan, keyin yillarda bu masalaga alohida e'tibor qaratilyapti. Shu kunlarda bu yerlardan xorijiy va mahalliy ziyoratchilarning qadami arimaydi.

Xo'sh, naqshbandiyaning bu qadar e'tibor topishiga asosiy sabab – nima? Bu masala hammamizni, jumladan, turkiyalik kitobxonlarni ham qiziqtiradi.


Shu ehtiyojdan kelib chiqib, taniqli o'zbek tasavvufshunosi, sharqshunos-manbashunos Komiljon Rahimov tayyorlagan naqshbandiya pirlari bilan bog'liq olti kitob Anqarada "Fajr" nashriyotida turk tilida nashr etildi.

Kitoblardan uchta – monografiya. Bular – "Xojagon-naqshbandiya tariqati va yetti pir" ("Hacegan-Nakşibendiyye Tarikati ve Yedi Pir"), "Xojagon-naqshbandiya tariqati va iqtisodiyot" ("Hacegan-Nakşibendiyye Tarikati ve Ekonomi") hamda "Movarounnahr tasavvufi ildizlari: ta'limotning shakllanishi va tizimlashtirilishi (VIII - XI)" ("Maveraünnehir Tasavvufunun Kökleri: Tasavvuf Öğretisinin Gelişimi ve Sistemleştirilmesi (VIII - XI. Yüzyıllar)") nomli tadqiqotlar.





Qolgan uch kitob esa – naqshbandiy pirlar yozgan asarlarning Komiljon Rahimov tarafidan tayyorlangan ilmiy-izohli nashrlari. Bular – Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniyning "Vasiyatnoma" ("Vasiyetname"), Xoja Muhammad Orif Revgariyning "Orifnoma" ("Ârifname") va Xoja Ali Romitaniyning "Risolai Hazrati Azizon" ("Risâle-i Hazret-i Azîzân") asarlari.





Bu nashrlar birgalikda muayyan bir turkumni tashkil etadi. Ularning hammasiga yalpi holda baho beriladigan bo'lsa, aytish – kerakki, olim ulkan ishni amalga oshirgan, buning uchun katta mehnat sarflagan.

Milliy ma'naviy tariximizning keyin 13 asrini islom ta'sirisiz aslo tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu muqaddas din bag'rida paydo bo'lib, taraqqiy etgan tasavvuf ta'limoti esa VIII asrdan boshlab milliy ma'naviy hayotning mag'zi-mag'ziga singib bordi. XII asrda Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni tomonidan islom olamidagi eng so'nggi va eng mukammal tariqat sifatida shakllantirilgan xojagon ta'limoti XIV asrda Xoja Bahouddin Naqshband tarafidan yanada takomillashtirildi va keyinchalik u "naqshbandiya" deb atala boshladi. XV asrga kelib, Xoja Ahror Ubaydulloh Valiy, Nuriddin Abdurahmon Jomiy, Mir Alisher Navoiy hayoti, faoliyati va ijodiyoti misolida bu ta'limot g'oyalari targ'iboti o'zining eng yuksak darajasiga ko'tarildi.

Ammo, har bir imoratni uning poydevori ko'tarib turgani singari, tasavvufning Movarounnahr va Xurosonda nazariy va amaliy jihatdan bu darajada ravnaq topishi inqilobiy hodisa emas edi, balki bu ayni sohadagi tadrijiy taraqqiyotning tabiiy va mantiqiy mahsuli edi.

Tasavvuf tarixidan yaxshi bilamizki, Xoja Yusuf Hamadoni Buxoroda bir muddat muridlar tarbiyalash bilan shug'ullandi. Xoja Ahmad Yassaviy ham, Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni ham uning xalifalaridan edi. Bu ikki murid tasavvufda alohida-alohida tariqatlar, ya'ni yassaviya va xojagon tariqatlariga asos soldi. Bu ikki ta'limot ham yurtimizdan islom olamining juda keng hududlariga yoyildi. Bu tarixiy faktni inkor qilishga hech kimning haqqi yo'q, albatta.

Biroq tasavvuf tarixiga oid manbalardan ayonki, Xoja Yusuf Hamadoni Buxoroda muridlarining sulukka jibilliy munosabati nihoyatda yoqib qolgan. Timsoliy qilib aytganda, bu zaminda u qadagan urug'lar yaxshi unib chiqqa boshlagan.

Xo'sh, bunga sabab nima edi?

Bu savol har qancha oddiy tuyulmasin, unga javob berish uchun maxsus va jiddiy ilmiy tadqiqot yaratish kerak. Bunda, tabiiyki, falsafaning sabab va oqibat kategoriyalari birligidan kelib chiqishga to'g'ri keladi.

Dadil turib aytishimiz – kerakki, olimning bu kitoblar turkumi orqali aynan ana shu muhim va sharafli

vazifani bajardi. Bajarganda ham, asosli, puxta-pishiq, ilmiy tarzda uddaladi.

Uning bu tadqiqotlarida, umumiy qilib aytganda, yetti asrlik davrdagi tasavvufga doir manbalar qamrab olingan. Yana bir muhim jihatini alohida ta'kidlash kerakki, bu manbalarning aksariyati fors-tojik, bir qismi esa arab tilida. Ularning aksariyati – hali zamonaviy talablar asosida nashr qilinganicha ham yo'q. Arabiy va forsiy qo'lyozma manbalar asosida ishlashning o'z murakkabligi va katta mashaqqati borligini hammamiz yaxshi bilamiz.

Olim, umuman, islom olamida tasavvufning paydo bo'lishi, uning taraqqiyotidagi zohidlik davri, so'fiylik maktablari hamda oqimlarining yuzaga kelishi bosqichlari haqida tasavvurlarimizni muayyan bir xronologik tizimga soladi. To'g'ri, o'zbek ilmida tasavvuf bilan bog'liq ancha-muncha tadqiqotlar olib borildi. Ularda, jumladan, bu masalalarga ham u yoki bu darajada daxl qilingan. Ayniqsa, marhum ustoz, atoqli sharqshunos Najmiddin Komilovning ikki kitobdan iborat "Tasavvuf" deb nomlangan tadqiqotlari bu jihatdan alohida ajralib turadi. Lekin Komiljon Rahimov tadqiqotlarida tarixiy xronologiya asosida muayyan tadrijiylikni yoritib berish – mavjud.

Tadqiqotchi, shuningdek, tasavvufning vujudga kelishi, zohidlik davri, so'fiylik maktablari va oqimlarining aynan Markaziy Osiyodagi jarayonlarini ham yoritadi. Eng muhimi, bularning bariga yurtimizda xojagon-naqshbandiya tariqatining yuzaga kelishiga zamin bo'lgan jarayonlar sifatida qaraladi. Shu tariqa masala yanada aniqlashtirilib, muayyanlashtirilgan tarzda qo'yiladi-da, bu ta'limotning o'rganilishi, ayni tariqat pirlarining irodat silsilasi va nomlanishlari, tariqatning vujudga kelishi va yoyilishi, ta'limotning mohiyati, shuningdek, ta'limotdagi asosiy kontseptsiya va rashhalarning shakllanish ildizlari tadqiq etiladi.

Biz tariqat "oltin silsila"sidagi Buxorodan o'tgan yetti pirni bilamiz. Pirlik maqomi muayyan ketma-ketlik asosida biridan ikkinchisiga o'tib kelganidan ham yaxshi xabardormiz. Biroq ilmga hozirgacha bu yetti buyuk zotning tariqatga aynan qanday hissa qo'shgani, shu tariqa ro'y bergan takomillashish jarayonlari haqida yetarli tasavvurga ega emas edik. Bu kitoblar – imldagi ana shu bo'shliqni to'ldirgani bilan ham e'tiborga loyiq. Olim G'ijduvoni, Revgariy, Anjirfag'naviy, Romitaniy, Samosiy, Kulol va Naqshbandning bevosita ta'limot ravnaqiga kiritgan yangilik va qo'shimchalarini ham izchil bayon etadi.

Xullas, bu kitoblarda xojagon-naqshbandiya islom tasavvufining sintezi sifatida yuzaga kelgani, bunda, jumladan, Markaziy Osiyodan chiqqan mutasavvif olimlar qarashlarining alohida o'rni bo'lgani manbalarni sinchiklab o'rganish asosida ko'rsatib berilgan. Bu ilmimizdagi muhim yangilik sifatida baholanishi zarur.

Komiljon Rahimov – sharqshunos, manbashunos, islomshunos, tarjimon, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi (dotsent), "Naqshbandiya" jurnali bosh muharriri o'rinbosari, "O'zbekiston mustaqilligiga 20 yil" ko'krak nishoni sohibi (2011). U 1982 yilning 9 iyulida Buxoro shahrida tug'ilgan. Dastlab sharif shahardagi Mir Arab madrasasida (1995 – 1999), keyin Buxoro davlat universitetining O'zbek filologiyasi fakultetida (bakalavriat: 2000 – 2004, magistratura: 2004 – 2007), O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti aspiranturasida (2014 – 2017) va doktoranturasida (2018 – 2021) tahsil olgan. Misr Arab Respublikasining Qohira universiteti Arab filologiyasi fakultetida malaka oshirgan (2006 – 2007).

Uning Turkiyada chop ettirgan kitoblari amalda o'zbek-turk do'stligi, madaniy-ma'naviy hamkorligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu nashrlar aynan Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining yaqinda Istanbulda o'tkazilgan VIII sammiti oldidan nashr yuzini ko'rgani ham o'ziga xos ramziylik kasb etdi.

Bu umidli sharqshunosimizdan yana katta-katta monografik tadqiqotlar kutib qolamiz. Uning o'zbek ma'naviy merosini dunyoga keng yoyish borasidagi ezgu ishlariga omadlar tilaymiz.